

**VOYAGA YETMAGANLARGA NISBATAN SODIR ETILADIGAN JINSIY
ZO'RAVONLIKLARNING VIKTIMOLOGIK PROFILAKTIKASI TUSHUNCHASI,
TURLARI VA IJTIMOIIY XAVFI**

Tashtemirov Anvar Aliqulovich

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, Ma'muriy huquq kafedrasida dotsenti.

E-mail: anvartoshtemirov05031979@gmail.com.

Choriev Asilbek Shavkat o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 3-o'quv kursi, 318-guruh kursanti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etiladigan jinsiy zo'ravonlik jinoyatlarining tushunchasi, ijtimoiy xavfi, bugungi kundagi holati, bunday turdagi jinoyatlarning oldini olish bo'yicha mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'nalishlari hamda II O'larida profilaktika xizmatining ushbu yo'nalishdagi asosiy vazifalari haqida ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *voyaga yetmagan shaxs, bola huquqlari, zo'ravonlik, jinsiy zo'ravonlik, ta'ziyq, profilaktik chora tadbirlar, shahvoniy harakatlar, ta'lim-tarbiya, vasiy, homiy.*

Jinsiy erkinlikka qarshi huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi - huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi sub'ektlarning voyaga yetmagan shaxsning jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlardan jabrlanuvchiga aylanishi xavfini kamaytirishga qaratilgan profilaktika chora-tadbirlarini qo'llashga doir faoliyati tushuniladi.

Ichki ishlar organlari tomonidan jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlarning viktimologik profilaktikasi fuqarolarning yoki voyaga yetmagan shaxsning jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlardan jabrlanish ehtimolini kamaytirishga yunaltirilgan hamda ushbu jinoyatlarni sodir etilishida jabrlanuvchilarning tutgan o'rnini hamda jabrlanishning sabablari, ularga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish, shuningdek bu borada targ'ibot-tashviqot ishlarini tashkil etish orqali jabrlanish xavfini kamaytirish, ushbu jinoyatlar haqida ma'lumotlar berish, ogohlikka, hushyorlikka chaqirish hamda xavfsizlikni ta'minlash chora-tadbirlarini amalga oshirish maqsadida olib boriladi.

Ta'kidlash joizki, jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlardan jabrlanganlarning sabablarini o'rganishda jabrlanuvchi haqidagi ta'limot muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, jinoyatning sodir etilishida jabrlanuvchining tutgan o'rnini ilmiy jihatdan bilish jinoyatchilik profilaktikasining chora-tadbirlarini ishlab chiqishda katta ahamiyatga ega ekanligini aslo unutmaslik zarur. Huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organ yoki muassasaning muayyan shaxsning huquqbuzarlikdan jabrlanuvchiga aylanishi xavfini kamaytirishga qaratilgan

profilaktika chora-tadbirlarini qo'llashga doir faoliyati huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi.

Xuquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi "Xuquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'irisida"gi qonun talablari asosida umumiy va yakka tartibda amalga oshirilishi mumkin.

Xuquqbuzarliklarning umumiy tartibdagi viktimologik profilaktikasi davlat va jamiyatga o'zining ko'p sodir etilayotganligi bilan yoki ijtimoiy va moddiy zarari bilan xavf tug'dirayotgan xuquqbuzarliklar yoxud malum bir toifadagi shaxslarning jabrlanish ko'rsatkichlarining tobora oshayotganligi bilan taxdidlar kuchaygan xollarda malum bir turdagi xuquqbuzarlik xamda jabrlanish ehtimoli yuqori bo'lgan malum bir toifadagi shaxslar xususiyatidan kelib chiqib, targ'ibot-tashviqot yoki boshqa toifadagi profilaktik chora-tadbirlar asosida fuqarolarni oqoxlikka, xushyorlikka va xavfsizlikka chorlash va bunga erishish maqsadida amalga oshiriladi.

Xuquqbuzarliklarning yakka tartibdagi viktimologik profilaktikasi esa, ma'lum bir xuquqbuzarlik bo'yicha muayyan shaxsning jabrlanish ehtimoli yuqoriligini aniqlash asosida uni mavjud xavfdan oqox qilish, xushyorlikka chaqirish va xavfsizlik choralari ko'rishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlarni tashkil etish maqsadida amalga oshiriladi.

Jabrlanuvchisiz jinoyat bo'lishi mumkin emas. Hech shubha yo'qki, har qanday jinoyat jabrlanuvchiga moddiy, jismoniy yoki ma'naviy zarar etkazadi. Muayyan shaxs, kishilar jamoasi, jamiyat, davlat va hatto xalqaro huquq-tartibot organlari ham jinoyat qurboni bo'lishi mumkin.

Jinoyat qurbonlarining jinoyat sodir etilishiga aloqadorligi xususidagi fikrlar hozirgi kunda yangilik emas. Ushbu g'oya ko'p sonli adabiy manbalarda va huquq ijodkorligi yodgorliklarida o'z aksini topgan insonparvarlik, kechirimlilik, bag'rikenglik xalqimizga xos bo'lgan azaliy qadriyatlardir. Shu bois ham jinoyat sodir etgan shaxs bilan jabrlanuvchining o'zaro kelishuvi davlatchiligimiz asoslarida ham keng qo'llanilgan. Bunda jinoyat sodir etgan shaxs jabrdiydaga tovon to'lagani uchun jabr ko'rgan taraf uni kechirib, qozi (sud)dan aybdorni jazodan ozod qilishni talab etishga haqli bulgan.

"Jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlardan jabrlanganlarning sabablarini o'rganishda jabrlanuvchi haqidagi ta'limot muhim rol o'ynaydi. Bundan tashqari jinoyatning sodir etilishida jabrlanuvchining tutgan o'rnini shuningdek uning xulq-atvori ushbu jinoyat yoki huquqbuzarlik sodir etilgan vaqtda jabrlanuvchi va huquqbuzar o'rtasidagi munosabat muhim ahamiyatga egadir

Jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlardan jabrlangan shaxslarni o'rganishda:

1. jinoyat qurboni va jinoyatchi o'rtasidagi munosabat hamda ularning o'zaro aloqasi;

2. jinoyatni sodir etishda sabab va shart-sharoitni yuzaga keltirish bilan bog'liq holda, jinoyat qurbonlarning shaxsi va o'zini tutishi;

3. muayyan hayotiy vaziyatlarda jabrlanuvchining o'zini tutushi oqibatida jinoyatning yuzaga kelishi;

4. jinoyat sodir etilganidan sung (ayniqsa, retsdiv jinoyatlarni urganishda) jabrlanuvchining shaxsi va uning uzini tutishi;

5. latent jinoyatchilikning yuzaga kelishida jabrlanuvchining shaxsi va xatti-harakatlaridagi uzaro bog'liqlik xususiyatlari muhim ahamiyatga ega.

O'z-o'zidan ravshanki, jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlardan jabrlanganlarni o'rganishdan ko'zlangan asosiy maqsad – jinoyat qurbonining ushbu jinoyatlarning yuzaga kelishida tutgan o'rni (roli) va ahamiyatini, jinoiy vaziyatning yuzaga kelishi va rivojlanishiga qo'shgan «hissasi»ni aniqlash va tadqiq etishdir. Buning uchun esa, jabrlanuvchining shaxsi haqida, shuningdek uning jinoyat sodir etilishidan oldingi xulq-atvori to'g'risida umumiy axborot olish zarur” .

Shuning uchun, birinchi navbatda, uning shaxsi to'g'risidagi zarur ma'lumotlar, ayniqsa, jinoyatning yuzaga kelishiga sabab bo'luvchi xulq-atvori atroflicha o'rganilishi lozim.

Shu bilan bir qatorda, jabrlanuvchining shaxsi va xatti-harakatlari jinoiy qilmishni amalga oshirishga tayyorlanishdan oldin, jinoyatni amalga oshirish vaqtida va jinoyatchilarning qayta jinoyat sodir etishlarida ham alohida o'rin tutadi.

“Shaxslar muayyan toifasining vakillari jinoyatdan jabrlanish extimoli sodir etilayotgan jinoyat turiga qarab har xil bo'ladi. Masalan, bezorilikdan jabrlangan shaxs nomusga tegishdan jabrlanuvchilarga qaraganda ko'piroq darajada tasodifiy bo'ladi. Ayni vaqtda, firibgarlikdan jabrlanuvchilar nomusga tegishdan jabrlanuvchilarga qaraganda kamroq darajada tasodifiydir. Tasodifiylik omili jinoyat sodir etish usuliga, jinoyatchining “professional” tayyorgarligiga va boshqa holatlariga qarab nomoyon bo'ladi. Jinoyatchilar jabrlanuvchilarni tanlashda har xil belgilariga qarab chunonchi: ko'p miqdorda moddiy boyliklari mavjudligiga; bo'lajak jabrlanuvchining tashqi ko'rinishiga (nomusga tegishda ayolning “chiroyligi”, jinoyatga turtki beruvchi xulq-atvori; yoshiga, hayot tajribasiga; qiziqishlariga qarab; fel-atvoridagi xususiyatlariga (ayolning xaddan tashqari ichkilikka ruju qo'ygani); jabrlanuvchining ishonuvchanligi qarab mo'ljal oladi. Shaxsiy xususiyat nuqtai nazaridan qaraganda, ushbu jinoyat turining jabrlanuvchilar turli tasnifga egalar. Ular ichida ijobiy hulqqa ega, ammo o'zining yoshidan qizlar, shuningdek hulqi buzuq prostitutsiya bilan shug'ullanuvchi qizlar mavjud. Ammo yosh qizlarning prostitutsiya bilan shug'ullanishlari nafaqat ularning aybi, balki ko'pincha qushmachilarning qurbonidir. Shu bois, ularning viktimlik moyilligini baholash mushkul ishdur. Biroq, ular viktimologik nuqtai nazardan yuqori darajada jinsiy jinoyatlarning jabrlanuvchisi bo'lish moyilligi kuchlidir. Chunki ularning viktimlik holati bevosita tashqi holatlarga bog'liqdir”.

Bu turdagi jinoyatlar yuqori latentlik ko'rinishiga ega. Chunki jabrlanuvchilarning ko'pchiligi o'zining shaxsiy hayotini oshkor qilishga moyillik bildirmaydi, shu bois, huquqni muxofaza etuvchi idoralarga murojaat qilmaydi.

Shubhasiz, ushbu jinoyatlardan jabr ko'rgan shaxslarning individual viktimlik holati yuqori bo'lsada, lekin bu jabrlanuvchilarning turli shaxsiy sifatlariga bog'liq. Asosan bular: jismonan qarshilik ko'rsatish imkonining yo'qligi; vaziyatni to'g'ri baholash imkonining mavjud emasligi; passivlik; ilgari jinsiy munosabatda bo'lganlik va boshqalar.

Vaziyatlar omili ham turlicha bulib, ular qatoriga: notinch oilalar, farzandlar ustidan nazoratsizlik va boshqalarni kiritish mumkin.

Viktimologik jihatdan o'n olti yoshga tulumagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilish va ularga nisbatan uyatsiz harakatlar sodir qilish jinoyatlari namunaviy xarakterga ega. Zero, ushbu jinoyatlarda jabrlanuvchi doimo o'zining yoshi tufayli jinoyatning qurboni hisoblanadi. Ammo jabrlanuvchining yoshi mazkur jinoyatlarning yosh jihatdan betaraf jabrlanuvchi rolidan dalolat bermaydi. Ma'lumotlarga ko'ra, shu toifadagi o'rganilgan jinoyat ishlarida 42% jabrlanuvchi o'zlarining salbiy xususiyatlarini namoyon qilganlar, 58% jabrlanuvchi esa jinoyat sodir etilishiga turtki beradigan hulq-atvorni namoyon qilgan emas.

Ma'lumotlar poydevorida bir savol tug'iladi, o'smir qizlar qanday salbiy hulq-atvorni namoyon qilishlari mumkin. Bu erda salbiy hulq-atvor quyidagilarda aks etadi:

- buzuqlik, nosog'lom qiziquvchanlik
- jinoyatchidan hadiyalar, pul olishdan manfaatdorlik
- v) yoshi jihatdan yul quyib bulmaydigan ishonuvchanlik, notanqidiy yondoshuv
- g) motividan qat'i nazar uni yashirish.

"Jinoyatchining jabrlanuvchini tanlashi - viktimlikni belgilovchi muhimi belgidir. Lekin bu mazkur hodisaning birdan-bir omili emas. Boshqa bir holat –jabrlanuvchining hulq-atvori ham viktimlikni aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Yuqorida takidlab o'tganimizdek , jabrlanuvchining jinoyat sodir etishdan oldingi, jinoyat sodir etish vaqtidagi va jinoyat sodir etilgandan keyinngi hulq-atvori farqlash lozim. Nomusga tegishda jinoyat sodir etishga jabrlanuvchining ayblanuvchida jinsiy xirsini qo'zg'atuvchi ahloqqa zid yoki engiltak hulq-atvori turtki beradi. Bundan tashqari, jabrlanuvchining kuchsiz yoki ojiz holatini, uning zo'rlikka qarshilik ko'rsatish qobilyati cheklanganligini ifodalovchi holatlariga e'tibor berish lozim buladi. G'arazgo'ylik jinoyatlarga ko'pincha jabrlanuvchining engltak yoki ahloqqa zid harakatlari, "do'stlar" va begona shaxslarga nisbatdan haddan tashqari ishonuvchanlik, shuningdek jinsiy mayilikka berilishi imkoniyat yaratadi".

Jinsiy erkinlikka qarshi huquqbuzarlik – deganda jinsiy erkinligi va jinsiy daxlsiziligiga qarshi jinoyatlar insonning jinsi bilan bog'liq hayotiy munosabatlariga tegishlidir, kriminalogik jihatdan jinsiy jinoyatlar tushunchasi jinsiy erkinlikka va jinsiy daxlsizligiga tojovuz qiluvchi jinoyatlar hamda o'smirlar jinsiy shakllanishi va tarbiyalash bilan bog'liq masalalarni nazarda tutadi. Ichki ishlar organlarining profilaktika xizmatlari, xususan, profilaktika inspektorlari huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi bo'yicha faoliyatida ma'muriy va jinoiy huquqbuzarliklardan jabrlanuvchi va jabrlanishga moyil bulgan shaxslarni aniqlash,

ularni hisobini yuritish, jabrlanish sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish maqsadida huquqbuzarliklarning umumiy, maxsus, yakka tartibdagi viktimologik profilaktikasining huquqiy, ijtimoiy, tashkiliy va boshqa chora-tadbirlari tizimini amalga oshiradi. Bu borada viktimogen omillarni aniqlash, bartaraf etish, zararsizlantirish va ularning ta'sirini kamaytirishga hamda viktimlik darajasi yuqori bo'lgan shaxslarni aniqlash, ulardagi viktimlik darajasini pasaytirish va ularning jinoiy va boshqa har qanday ko'rinishdagi tojovuzlar qurboni bo'lish xafini kamaytirishga qaratilgan kompleks himoya-tarbiya chora-tadbirlari amalga oshiriladi. E'tiborli tomoni shundaki, huquqbuzarliklarning viktimalogik profilaktikasida ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirish faoliyat huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo'lgan shaxsga emas, balki huquqbuzarlikdan jabrlanishga moyil bo'lgan shaxslarga hamda bunday moyilikni shakllantiruvchi omillarni bartaraf etishga qaratilgandir. Shuningdek, amaliyotda shunday holatlar ham uchraydiki, jinoyatchi to'sattan jabrlanuvchiga xujum kiladi, bunda jinoyatchi insonlar kam buo'ladigan joylarni tanlaydi, jabrlanuvchini erto'la yoki tom cherdaklariga tortib kirishga harakat kiladi. Jinoyatchi ko'pincha jabrlanuvchining kat'iy jismoniy qarshiligiga duch keladi, jabrlanuvchi odamlarni yordam chaqirib, bakiradi. Jabrlanuvchining bunday vaziyatdagi xulk-atvori juda ijobiy sanaladi. Negaki, qarshilik muayyan jismoniy rivojlanishning belgisi hisoblanadi.

Jinoyatchi jabrlanuvchiga nisbatan uyatsiz harakatlarni u bevosita jismoniy yakinliksiz yo'li bilan ham amalga oshirishi mumkin. Jinoyatchi kiyimlarini echib, jabrlanuvchining karshisida turli axlokkaga zid xarakatlarni amalga oshirishi mumkin.

Ushbu holatda jabrlanuvchining ijboiy xulki kuyidagilarda namoyon bo'lishi mumkin:

- a) jinoyat sodir etilgan joydan ketish, ya'ni jinoyatchini ushlab berishga qaratilgan choralarni ko'rmagan holda;
- b) voqea joyidan darxol ketish va boshka shaxslarga jinoyat xakida xabar berish;
- v) jinotchini ushlab choralarni faol kurish, ya'ni ichki ishlar organlari xodimlariga xabar berish va ular bilan birgalikda shunday choralarni amalga oshirish va b.

Birinchi ikkinchi vaziyatlar kupincha voyaga etmagan jabrlanuvchilarga, so'ngi vaziyatlar ko'pincha katta yoshdagi jabrlanuvchilarga tegishlidir.

Huquqbuzarliklardan jabrlanuvchilarga nisbatdan shaxsning individual va ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda profilaktik tadbirlarni utkazish: Huquqbuzarlikdan jabrlanishga moyil bo'lgan, jabrlanish ehtimoli yuqori bo'lgan va jabrlangan shaxslarni aniqlash, ularning individual va ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rganish. Shaxsning harakteri. Temperamenti, ruhiy kechinmalari, hodisalarga va tevarak atrofdagilarga munosabati,

Xulosa qilib aytganda, profilaktika inspektorlari tomonidan jinsiy erkinlikka qarshi huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi chora-tadbirlarini o'z vaqtida amalga oshirish kelgusida ushbu faoliyatni samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Hozirgi vaqtda ichki ishlar organlari tomonidan huquqbuzarliklar va jinoyatlarning oldini olish maqsadida targ'ibot-tashviqot ishlari amalga oshirilmoqda. Asosiy vazifa huquqbuzarliklardan jabrlanish ehtimoli yuqori bo'lgan shaxslarga nisbatdan tarbiyaviy profilaktik ishlarni tashkil etishga qaratilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz to'rt yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. <https://president.uz/uz/lists/view/8440>.
2. O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 14 noyabrdagi "Bolalarni zo'rvonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida"gi O'RQ-996-son qonuni.
3. Таштемиров А. Кибержиноятчилик ва унинг ўзига хос шаклланиш даврлари //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2023. – Т. 2. – С. 133-139.
4. Абдухалилов Х. Д. Ў., Валиев Б. Б. Ў. Босқинчилик жиноятларини профилактика қилишнинг долзарб масалалари //Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2024. – Т. 1. – №. 7. – С. 116-119.
5. Таштемиров А. А. и др. Ижтимоий тармоқлар орқали содир этилаётган жиноятларга қарши курашиш чора-тадбирлари //Models and methods for increasing the efficiency of innovative research. – 2023. – Т. 2. – №. 21. – С. 24-31.
6. Aliqulovich T. A. Atxam o'g'li MX Profilaktika inspektorining ommaviy tadbirlarni o'tkazish jarayonidagi ishtirokining oziga xos xususiyatlari //O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2023. – Т. 2. – №. 24. – С. 230-235.
7. Таштемиров А., Нурматов Н. Айрим хорижий давлатларнинг тезкор қидирув фаолиятида соҳавий ҳамкорликнинг таҳлили //Иноватсионные исследования в науке. – 2024. – Т. 3. – №. 5. – С. 190-197.
8. Таштемиров А., Хўжамбердиев А. Оила-турмуш муносабатлари доирасидаги ҳуқуқбузарликларнинг турлари ва таснифи //Журнал академических исследований нового Узбекистана. – 2024. – Т. 1. – №. 6. – С. 4-12.
9. Таштемиров А., Юлдошев Х. Ҳуқуқбузарликлар профилактикасини амалга оширишда оммавий ахборот воситалари ва блогерлар билан ҳамкорликнинг ўзига хос жиҳатлари //Академические исследования в современной науке. – 2024. – Т. 3. – №. 17. – С. 55-61.
10. Таштемиров А., Нурматов Н. Айрим хорижий давлатларнинг тезкор қидирув фаолиятида соҳавий ҳамкорликнинг таҳлили //Иноватсионные исследования в науке. – 2024. – Т. 3. – №. 5. – С. 190-197.
11. Тоштемиров А. Киберфирибгарлик билан боглик жиноятларнинг пайдо булиш ва ривожланиш тарихи //Общество и инновации. – 2022. – Т. 3. – С. 11.

12. Abduxalilov H. D., Xusanova M. M. Voyaga yetmagan jinoyatchining shaxsi //Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2024. – Т. 1. – №. 8. – С. 146-148.

13. Таштемиров А. А. и др. Зўравонлик билан боғлиқ ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тушунчаси ва ўзига хослиги //Innovative achievements in science 2024. – 2025. – Т. 4. – №. 37. – С. 82-90.

14. Abduxalilov X. et al. Profilaktika inspektorining qo 'shmachilik qilish va fohishaxona saqlash bilan bog'liq jinoyatlar bo'yicha tezkor qidiruv bilan hamkolrligini takomillashtirish //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2024. – Т. 3. – №. Maxsus son 12. – С. 78-84.

15. Таштемиров А., Курчибоев Ж. Вояга етмаганлар ҳуқуқбузарлигининг профилактикасида таълим ва тарбиянинг ўрни ва аҳамияти //Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. – 2023. – Т. 3. – №. 12. – С. 130-135.